



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 14 (909)
22-sentyabr, payshanba
2020-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
martdan chiqqan
boshlagan

SEN QUDRAT MANBAI, SAODAT MASKANI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Bu yil jonajon Vatanimiz Mustaqilligining 29 yilligi – «Sen qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O‘zbekistonim!» shiori ostida keng nishonlandi.

Istiqlol ko‘hna tariximiz, boy madaniy merosimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va milliy qadriyatlarimizni tikladi, xalqimiz qoniga singib ketgan mehr-oqibat, bag‘rikenglik, saxovat kabi olijanob fazilatlar, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini yana qaytadan jonlantirdi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda keng jamoatchilik barcha ijobiy o‘zgarishlarning tashabbuskori va bunyodkoriga aylanmoqda. Qaysi sohani olmaylik, qaysi jabhaga nazar solmaylik, ilgari surilayotgan xalq tashabbusi, albatta, qo‘llab-quvvatlanmoqda, sharoit yaratilmoqda, investitsiya kiritilmoqda, rag‘batlantirilmoqda, bir so‘z bilan aytganda, xalqning roziligi yo‘lida tinmay izlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda bu borada: “Bugun Yangi O‘zbekiston taraqqiyotning eng muhim va mas‘uliyatli bosqichiga qadam qo‘ydi. Xalq farovonligini oshirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib

o‘rin egallashini ta‘minlash maqsadida barcha sohalarida keng ko‘lamli izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» tamoyili islohotlarimizning bosh mezoniga aylandi va bunda xalq saylagan deputatlarga ham katta mas‘uliyat va ishonch bildirilmoqda”, deganida yurtdoshlarimizning hayotida, turmushida yuz bergan katta o‘zgarishlarni nazarda tutdilar.

Bugun har qachongidan ko‘ra yoshlar manfaatini har narsadan ustun qo‘yib, ularga shart-sharoit yaratish, ilm olishlari, kelgusida mamlakatga sitqidildan xizmat qiladigan avlodni yetishtirish uchun olib borilayotgan ezgu ishlar xususida ham ta‘kidlab bayramona tabrik yo‘lladilar.

“Bugungi qutlug‘ ayyomda Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizning kamoli yo‘lida qilayotgan ishlarimizni esga olishimiz tabiiydir.

So‘nggi to‘rt yilda mamlakatimizda 43 ta yangi oliy ta‘lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 121 taga yetdi. Bu yil oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun bir yarim millionga yaqin yoshlarimiz hujjat topshirdi. Bu raqam o‘tgan yilga nisbatan 40 foiz ko‘p demakdir.

Ushbu ko‘rsatkichlar, avvalo, farzandlarimiz va ularning ota-onalari qalbidagi ertangi kunimizga, kelajakka bo‘lgan katta orzu-umid va ishonchdan darak beradi.

Ana shu o‘g‘il-qizlarimiz yaqinda kirish imtihonlarini topshiradi. Kelinglar, bo‘lg‘usi sinovlarda

hamma farzandlarimizga omad va zafarlar tilaylik!”.

O‘g‘il-qizlarimizning tarbiyasida muhim bo‘g‘in hisoblanadigan maktabgacha ta‘lim va umum ta‘lim maktablar tizimida ham olib borilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident maktablari, ixtisoslashgan va ijod maktablari barpo etilayotganligi, “Zamonaviy maktab” dasturi joriy etilib bu borada ishlar uzluksiz davom etmoqda.

Joriy yilda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzilganligi fikrimizning dalilidir.

Hududlarda “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida iqtidorli va tashabbuskor o‘g‘il-qizlarimizning 8 mingdan ziyod biznes loyihalariga qariyb 1,7 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilganligi yoshlarga yaratilgan imkoniyatning nechog‘lik keng ekanini ko‘rsatadi.

Bugun barcha oliy ta‘lim muassasalarida, xususan, institutimizda ham iste‘dod va qobiliyati talaba yoshlarning ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish borasida talay ishlar amalga oshirilyapti.

Bunday ezgu ishlarimiz har bir yurtdoshimiz baralla aytayotgan: “Sen qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O‘zbekistonim!” shiorimizda jam bo‘lgan.

BUGUNNING QAHRAMONLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan murakkab va sinovli kunlarda hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yib, mavjud xatarlarga qarshi kurashish, infeksiya keng tarqalishining oldini olish ishlariga qo‘shgan munosib hissasi uchun bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi.

E‘tiborlisi, taqdirlanganlar qatorida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti vakillarining ham mehnatlari e‘tirof etildi.

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi» faxriy unvoni bilan

Alimov Anvar Valievich – Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Neonatologiya kafedrasini mudiri;

«Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan

Tadjiev Botir Mirxashimovich – Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tekshirish instituti direktori, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini mudiri.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligi munosabati bilan mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, xususan, koronavirus pandemiyasi keng tarqalishining oldini olish, sani-

tar-epidemiologik o‘soyishtalikni ta‘minlash ishiga o‘zining bilim va salohiyati, professional mahorati bilan munosib hissa qo‘shgani, aholi salomatligini muhofaza qilish, bemorlar hayotini asrash, ularga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasidagi alohida xizmatlari, o‘z hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yib, muqaddas shifokorlik burchini vijdonan ado etishdagi jasorati va fidoyiligi uchun quyidagilar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi.

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi» faxriy unvoni bilan

Kariev G‘ayrat Maratovich – Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Travmatologiya va ortopediya, bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi, neyroxirurgiya va bolalar neyroxirurgiyasi kafedrasini mudiri.

Albatta, ustozlarimizni ushbu yuksak e‘tirof va unvonlar bilan institutimizning barcha yoshlari nomidan chin qalbimizdan tabriklaymiz va kelgusi ishlarida ulkan zafarlar tilaymiz.

Xasanxodja ABIDOV,
ToshPTI rektorining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – institut
Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi
Yoshlar Parlamenti a‘zosi

O‘ZBEK TILI – MILLIY QADRIYAT RAMZI

Har qanday millatning o‘zligini namoyon etadigan milliy ramzlaridan biri uning ona tilidir. Ayni paytda, til o‘sha millatning qadriyati ham sanaladi. Jamiyat taraqqiyotining qaysi bosqichiga nazar tashlamaylik, til ijtimoiy hodisa, insonlararo munosabatlarda katta ahamiyatga ega milliy qadriyat sifatida e‘zozlanib kelingan.

Sir emaski, mustabid tuzum davrida o‘zbek xalqining boshqa milliy qadriyatlari qatorida uning ona tili ham kamsitildi, uni taraqqiy ettirish emas, aksincha, iste‘moldan siqib chiqarish, unuttirish, o‘zbek tili o‘rniga rus tilini tiqishtirib, ijtimoiy hayotda uning

nufuzini orttirishga intilish kuchaytirildi. 1989-yilning 21-oktyabrida o‘zbek xalqi ona tili sohasidagi qadriyatini tiklashga muvaffaq bo‘ldi – o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Bu xalqimizning o‘z milliy qadriyatlarini tiklash yo‘lidagi kurashining dastlabki g‘alabasi edi. Bu g‘alabani qo‘lga kiritish uchun nechog‘lik murosasiz g‘oyaviy kurash, bahs-munozara, tortishuvlar bo‘lganini xalqimiz unutmagan yo‘q va bu harakatni yuksak qadrlaydi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga mana o‘ttiz yildan oshdi. Agar bosib o‘tilgan yillarga nazar tashlasak, o‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha

beqiyos ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek tilshunosligi jiddiy taraqqiyot yo‘liga tushdi, fundamental ilmiy ishlar yozildi, salohiyatli kadrlar tayyorlandi. Barcha korxonalar va idoralarda, muassasalarda rasmiy ish qog‘ozlari Davlat tilida yuritiladigan bo‘ldi. Sho‘rolar davrida yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari mustaqillik mafkurasi hamda g‘oyalari asosida qayta yozilib nashr etildi. Sohalar bo‘yicha o‘nlab lug‘atlar tuzildi. Birgina besh jildlik “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning chop etilishi, nafaqat o‘zbek tilshunosligi yoki lug‘atchiligi, balki respublikamiz madaniy hayotidagi ulkan yutuqlardan biri tarzida baholanganini tilga olish kifoya. Joriy yildan e‘tiboran esa mamlakatimizda 21-oktyabr – O‘zbek tili bayrami sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi. Bu esa mamlakatimizda til siyosatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarining barchasida o‘quv dasturlariga o‘zbek tili asosiy fan sifatida o‘qitilish uchun kiritildi. Har bir oliy o‘quv yurtida 2019-2020-o‘quv yilidan boshlab “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini tashkil etildi. Jumladan, Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida ham mavjud kafedra – “O‘zbek tili va adabiyoti” deb qayta nomlandi.

Ta‘lim boshqa tilda olib boriladigan umumta‘lim maktablari-ning hammasida o‘zbek tili davlat tili sifatida o‘rganilmoqda. Bular bo‘yicha maxsus darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi. Bulardan tashqari, radio eshittirishlari va televideniye ko‘rsatuvlari, shuningdek, gazeta-jurnal sahifalarida o‘zbek tilida berilayotgan materiallar bilan tanishib bo-

rayotgan har bir fuqaro ona tilimizning nufuzi kundan kunga ortib borayotganidan xursand bo‘lishi tabiiy.

Xullas, bugungi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotimizning qaysidir bir tarmog‘iga nazar tashlamaylik, u yerda o‘zbek tilidan foydalanish zarurati tug‘ilganda, bu til nafaqat aloqa quroli yoki fikrni ifodalash vositasi, shu bilan birga milliy qadriyat sifatida ham e‘zozlanayotganini ko‘rib faxrlanamiz, shu til vakili bo‘lgani-



mizdan g‘ururlanamiz.

Shu narsani ham unutmaslik kerakki, o‘zbek tilini ulug‘lab, uning mavqeini ko‘tarish respublikamizdagi boshqa millatlar tilini kamsitish yoki ularga bepisand munosabatda bo‘lish hisobiga emasligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Masalaga bir tomonlama yondashuv mutlaqo noto‘g‘ri. O‘zbekiston ko‘p millatli respublika, unda turli millat vakillari bir oila farzandlaridek istiqomat qilishadi. Shu boisdan ham yurtimizda til siyosati juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Har bir millat o‘z ona tilida o‘qish, yozish huquqiga ega ekanligi qonunlashtirilgan. Respublikamizda turli millat vakillarining o‘z ona tilida ta‘lim olishlari uchun

sharoit yaratilgan, maktablar, o‘quv yurtlari tashkil etilib, ular u yoki bu tildagi darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlangan. Hatto, boshqa millatga mansub fuqarolarning o‘z ona tilida gazeta-jurnallar o‘qib borishlari uchun ham imkoniyat yaratilganki, bu haqiqatan ham, O‘zbekistonda o‘zga millat vakillarining barcha qadriyatlari qatorida, ularning ona tiliga ham davlat darajasidagi katta e‘tibor va hurmatning amaliy isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili o‘zbek xalqining asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib sayqallanib kelayotgan bebaho boyligi, milliy qadriyati, o‘zligini namoyon etadigan betakror ramz.

Eng asosiysi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha jabhalarida faol qo‘llaniladigan, bizga eng zarur ma‘naviyat chashmasidir. Shuning uchun ham har yili o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktyabr respublikamizda bayram sifatida keng nishonlanadi, turli adabiy-madaniy tadbirlar o‘tkaziladi, yil davomida til sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib yangi rejalar tuziladi, vazifalar belgilab olinadi. Bunday tadbirlar o‘zbek tilining hayotimizdagi mavqei yanada mustahkamlanishiga zamin hozirlaydi, uning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday ekan, mutaxassislar, tilshunos olimlar, murabbiylar va ustozlar, ijodkorlar, xullas, jamiyatning har bir fuqarosi o‘z imkoniyati va iqtidori doirasida o‘zbek tili taraqqiyotiga hissa qo‘shsa, tilimiz bundanda go‘zallashib, boyib, rang-baranglashib borishiga shubha yo‘q.

Gulandom QURAMBOYEVA
ToshPTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini katta

IBRAT

Bir kishi 48 yil avvalgi boshlang'ich sinf o'qituvchisini xiyobonda ko'rib qolib, xijolatlik bilan yoniga borib: "Ustoz, meni tanidingizmi?" dedi.

– Yo'q, taniyolmadim, – dedi kekxa muallim.

– Men boshlang'ich sinfdagi o'quvchigiz falonchi bo'ldim. Ustoz, sinfdosh o'rtog'imizning soati yo'qolgandi. Men olgandim. Siz "hamma joyidan tursin va qo'llarini taxtaga tirasin, tintuv qilaman" dedingiz. Men uyaldim va qattiq qo'rqdim. Siz va o'rtoqlarimning yuziga qanday qarayman, deb o'ylaganim sari badanimdan muzday ter quyilardi. Shu payt siz yana bir buyruq berdingiz: "Endi hamma ko'zlarini yumsin!"

Safning o'rtaroqlarida edim. Tin-tuv navbati menga keldi. Soatni indamay

cho'ntagimdan oldingiz va tintuvni safdagi so'ngi bolagacha izlashtirdingiz. Keyin bizni o'rnimizga o'tqazib, menga ham, boshqalarga ham hech narsa demasdan soatni egasiga qaytardingiz.

Ulg'ayganim sari bu ishingiz qalbimda kattarib boraverdi. Ustoz, men hozir oltmish yoshdaman. Bu hayotdagi eng katta saboqni o'sha kuni sizdan olgandim. Har gal eslaganimda bir seskanib ketardim va o'zimni sizdan qolgan marhamat va bag'rikenglik bag'rida his etardim. O'zingdan, vijdoningdan uyalib yashash azob, undan-da dahshatli azob esa uyalayotganingni boshqalar ham bilishi, ularni har ko'rganingda xijolat bo'lishing undan ham dahshatli azob.

Ustoz, siz menga hammadan uyalib yashash azobini ravo ko'rmadingiz. Bu

azobni his qilganimda unuta olarmidim, bilmayman to'g'risi. Lekin meni uyaltirmaganingizni hech qachon unutmadim, ustoz!

Kekxa o'qituvchi o'rindiqda yonma-yon o'tirgan sobiq o'quvchisiga o'g'irilib qaradi:

– U voqeani ertasi kuniyoq unutib yuborgandim. Hozir sen aytanganingda esladim.

Sizlarga ko'zlaringizni yuming deganimda men ham ko'zlarimni yumgandim. Shu yoshdagi har bir bola qo'l urishi mumkin bo'lgan yanglishga qo'l urgan o'quvchimga nisbatan ko'nglimda yomon o'y tushmasin degandim. U senmiding? Bilmasdim...

O'QUV YILINING ILK DARS



16-sentabri kuni Adiblar xiyobonida Alisher Navoiy haykalining o'ng tomonida turgan Berdaq haykalining yonida Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti ta-

labalari uchun o'quv yilining ilk sabog'i boshlandi. Qizig'i shundaki, Berdaq saboqlari butun bog' bo'yicha o'tkazilgan saboqlarning eng birinchisi bo'ladi.

Muhtasham bog'da o'tgan bu ochiq darsda Berdaqning ozodlik uchun bag'ishlangan umri hamda erksevarligi yetakchi bo'lganligi alohida ta'kidlandi.

Dars qoraqalpog'istonlik senator Botir Matmurodov fikrlari bilan mazmunan yanada teranlashdi. Institutda bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar, Berdaq she'riyati haqida institut o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri Kavsar Turdiyeva so'zlad.

Mening ko'z o'ngimda esa ushbu haykal adolatga bo'lgan ishonch ozodlik haykalidek gavdalandi.

Bugungi kun Qoraqalpog'istonda, ayniqsa, Berdaq bobo tug'ilgan Mo'ynoq tumanidagi obodonlashtirish, xalq farovonligini oshirish yo'lidagi bunyodkorlik ishlari qizg'in olib borilmoqda. Ochiq darsda talabalar bizlarga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi va javob olishdi.

O'razboy ABDURAHMONOV,
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston
xalq yozuvchisi

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRI: Falsafa.

DOTSENTLAR: Gistologiya; Bolalar yuqumli kasalliklari; Travmatologiya, ortopediya, bolalar travmatologiyasi, ortopediyasi; Gospital bolalar xirurgiyasi; Neonatologiya; Fakultet bolalar xirurgiyasi; Teri tanosil, bolalar teri tanosil kasalliklari, OITS; Bolalar stomatologiyasi.

KATTA O'QITUVCHILAR: Fuqarolik jamiyati; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish.

ASSISTENTLAR: Farmakologiya; Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh- Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115,19 ToshPTI bekat. 2020.22.09.

<p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, A.I. Iskandarov, K. Haitov, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, S.S. Gulyamov, Nashr uchun mas'ul: R. G'o'chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>Cho'lpon nomidagi NMIU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi. Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko'chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nusxa.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	---